



INDIVIDUAL TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING KASBIY-IJODIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI

Arslonova G.K.

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: zamonaviy, shaxs, ta'lim, tadqiqot, kreativ, texnologiya, talaba, kasbiy.

Ключевые слова: современный, человек, образование, исследование, творчество, технология, студент, профессионал.

Key words: modern, person, education, research, creative, technology, student, professional.

Резюме:

Maqolada Individual ta'lim muhitida talabalarning kasbiy-ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari haqida qisqacha mazmuni bayon etilgan.

Резюме:

В статье представлено краткое изложение современных технологий развития профессионально-творческих способностей студентов в индивидуальной образовательной среде.

Summary:

The article provides a summary of modern technologies for developing students' professional and creative skills in an individual educational environment.

Ma'lumki, so'nggi yillarda ta'lim-tarbiya jarayonlarida rivojlantiruvchi, muammoli, hamkorlikdagi, dasturli, blok-modulli, shaxsga yo'naltirilgan, o'yinli va axborot texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Har qanday ta'lim texnologiyasi uzluksiz ta'limning qaysi bo'g'inida joriy etilmasin, uning markazida ta'lim oluvchi shaxsi ya'ni talaba va uning qiziqishlari, ehtiyojlari ko'zda tutilishi kepak. Zamonaviy olim ta'lim jarayonida talabalarni kasbiy va ijodiy faoliyatga yo'naltiruvchi texnologiyalardan foydalanish tadqiqotni asoslovchi bosqichida o'z isbotini topdi. Tadqiqotimizda ta'lim jarayonida sanab o'tilgan texnologiyalar asosida dars mashg'ulotlari ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi. Shuningdek, kasbiy-ijodiy ko'nikmani rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari tizimlashtirildi. Ushbu texnologiyalarning asosiy maqsadi talabalarning pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish, kelajakda



tarbiyachi sifatida o‘z-o‘zini shakllantirish hamda pedagogik imidjini yaratishga yo‘naltirishdan iborat.

Shu nuqtai nazardan tadqiqot davrida talabalarda kasbiy-ijodiy ko‘nikmani rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari aniqlandi:

- tarbiyachilik faoliyatiga qiziqish hamda kreativ fikrlash qobiliyatning mavjudligi;
- kasbiy va ijodiy faoliyatga yo‘naltirishda talabaning imkoniyati va ehtiyojini qondirish;
- kasbiy va ma‘naviy fazilatlarga ega bo‘lish;
- o‘z-o‘zini tahlil qilish va kelajakdagi faoliyatini rejalashtirish;
- kasbiy faoliyatga yo‘naltirish faoliyatida sub‘ektiv va ob‘ektiv omillarni hisobga olish;
- kasbiy-pedagogik faoliyatga motivatsiya berish;
- pedagogik amaliyotda uchraydigan ta‘limiy vaziyatlarni anglash va yechim izlash.

Maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi 1-bosqich talabalarida kasbiy-ijodiy ko‘nikmani rivojlanirish maqsadida qator vazifalar amalga oshirildi:

- maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida o‘quv-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish bo‘yicha malakalar shakllantirildi;
- pedagogik imidj va pedagogik mahorat elementlari rivojlantirildi;
- ijodiy to‘garaklar tashkil etildi;
- “Tillar va maktabgacha ta‘lim” kafedrasida “Pedagogik-metodik klinika” tashkil etildi va talabalarga kasbiy faoliyatni tashkil etish bo‘yicha maslahatlar uyushtirildi.

“Maktabgacha pedagogika” o‘quv modulini o‘qitish jarayonida 1-bosqich talabalarida kasbiy-ijodiy ko‘nikmani rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy o‘qitish texnologiyalar amaliyotga joriy etildi. “Maktabgacha pedagogikaning asoslari.”, “Tarbiya tamoyillari va turlari.”, “Maktabgacha tarbiya tashkilotida ta‘lim-tarbiya dasturi.”, “Maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarning rivojlanishi sohalari.”, “Kasbiy kompetensiya”, “Tarbiya-ijtimoiy hodisa”, “Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom turmush tarzi asoslari” mavzulari tanlab olindi.

Tajriba-sinov davrida maktabgacha ta‘lim yo‘nalishi talabalari bilan o‘quv tarbiyaviy jarayonni faollashtiruvchi “Evristik dialog” texnologiyasini tatbiq etdik. Mazkur texnologiya bilish faoliyatini rivojlantiradi, talabalarni ilmiy izlanishga yo‘naltiradi va psixologik jihatdan erkin bo‘lishini ta‘minlaydi. Muammo echimini izlash hamda ijodiy jarayon bo‘lib, talabalardagi mavjud bilimlarni chuqurlashtiradi, turlicha alternativ qarashlarni yuzaga kelishiga turtki beradi.



1-bosqich maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari bilan "Evristik dialog" texnologiyasi "Tarbiya tamoyillari va turlari" mavzusida tatbiq etildi.

Maqsad: talabalarga tarbiya turlari va tamoyillari haqida ma'lumot berish. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasida qo'llash bo'yicha ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

Mazkur texnologiya uch bosqichda amalga oshirildi.

1.Motivatsion bosqich. O'quv mashg'ulotiga qiziqish uyg'onadi, yangi ma'lumotlar bilan ishlashga intiladi. Ushbu bosqichning asosiy vazifasi yangi mavzuga oid bilimlar asosida talabalardagi mavjud tajribalarni umumlashtirish va rivojlantirishdan iborat.

Talabalarga tarbiya turlari taqdimot asosida namoyish etiladi.

Aqliy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, huquqiy tarbiya, gigienik, jinsiy tarbiya, g'oyaviy-siyosiy tarbiya, baynalminal, gender, ijtimoiy, axloqiy, nafosat, mehnat, jismoniy, vatanparvarlik, ekologik tarbiya. Professor-o'qituvchi tarbiya turlari bo'yicha talabalarni juft-juft bo'lib o'zaro dialog o'tkazishlarini taklif qiladi. So'ngra talabalarga o'z fikrlarini bayon etishlari suraldi. Barcha talabalarning tarbiya turlariga oid shaxsiy mulohazalari muhokama qilindi.

2.Axborot bosqichi. Tarbiya mazmuniga oid ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan mini ma'ruza shaklida bayon etildi. Tarbiya qo'yilgan maqsad va vazifalarga ko'ra bolalar egallashi zarur bo'lgan qat'iy xulq-atvor me'yorlari, bilim, e'tiqod, ko'nikma, malaka va shaxsga xos axloqiy-ma'naviy sifatlar hamda xususiyatlar tizimidir. Tarbiya shaxsda- muayyan, jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon. Talabalarga tarbiyaga oid olim va buyuk mutaffakirlarning g'oyalariga oid metaplan karta (2-ilova) tarqatildi. Ular tarbiya bo'yicha ma'lumotlar bilan tanishish yordamida, yangi bilimlarini rivojlantiradi va baholaydi. O'zlashtirgan bilimlarini tahlil qiladi. Kelgusida kasbiy faoliyatida qo'llash bo'yicha o'zaro munozara o'tkazildi.

3. Refleksiv bosqich. Talabalar tarbiya bo'yicha maktabgacha yoshdagi bolalar bilan uchraydigan muammoli vaziyat tuzadi (3-ilova) va erkin va mustaqil tarzda fikrlari bilan bayon etadi. Bu bosqichda o'zlashtirgan yangi ma'lumotlarni ehtiyojiga ko'ra qabul qiladi va o'z hatti-harakatlarini to'g'ri tanlaganligi haqida o'z fikrlarini bayon etadi. Tarbiya qonuniyatlari va qoidalari bilan tanishib o'z mulohalarini bildiradi. Tarbiya qoidasi-pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir. Tarbiya qoidalari tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar hisoblanadi va tarbiyaviy jarayonda bu qoidalarga amal qilish uning samarasini oshiradi, yaxshi natijalarga olib keladi. tarbiyaning



bir maqsadga qaratilganligi tarbiyaning insonparvarlik va demokratik qoidasi, tarbiyani hayot bilan, mehnat bilan bog‘liqligi, tarbiyada milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligi, tarbiyada tarbiyachilarning yoshi va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta’sirlarning birligi va uzluksizligi qoidasi va boshqalar. Talabalar keltirilgan qoidalar bo‘yicha o‘z munosabatini bayon qiladi.

Darsyakunidatalabaryangi mavzuni qanchalik darajada o‘zlashtirganliklarini aniqlash maqsadida “Tarozi” mashqi o‘tkaziladi. Doskaga ikkita doira shakli yopishtiriladi qizil va yashil rangda. Kim mavzuni yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lsa, qizil rangdagi doiraga nuqta qo‘yadi. Yaxshi tushunmagan bo‘lsa, yashil rangdagi doiraga nuqta qo‘yadi.



O‘qituvchi “Tarozi” mashqi orqali talabalaryangi mavzuni o‘zlashtirganligini aniqlab oladi. Keyingi o‘quv mashg‘ulotini rejalashtirish bo‘yicha dars xaritasini tuzib oladi.

Uyga vazifa: Maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiya berish bo‘yicha esse yozib kelish.

“Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiya dasturi” mavzusi “PRESS” konferensiya texnologiyasi asosida olib borildi. Mazkur texnologiya ma’lumotlarni qisqa shaklda bayon etish, shaxsiy fikrlarini bayon etishga qaratilgan.

Maqsad: talabalarga “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi maqsadi, mazmuni, tamoyillari, pedagog-tarbiyachiga qo‘yilgan talablar, yillik va haftalik mavzular bo‘yicha ma’lumot berish.

Kerakli jihozlar: Takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, proyektor, kompyuter

O‘qituvchi talabalarga “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturini taqdimotini namoyish etadi va mini ma’ruza o‘tkazadi. Texnologiya to‘rtta bosqichda amalga oshirildi. Ma’ruzadan so‘ng o‘qituvchi, talabalarga o‘z qarashlarini bildirishlarini taklif qiladi.



1-bosqich. Talabalar shaxsiy nuqtai nazarini bildiradi. Davlat o'quv dasturi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat. Men shunday o'ylayman. Davlat o'quv dasturining asosiy vazifasi kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida bola shaxsini rivojlantirish hisoblanadi.

2-bosqich. O'z mulohazasini asoslash, demak... davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining quyidagi maktabgacha ta'lim tashkiloti va muassasalarida qo'llanilishi majburiydir. Davlat maktabgacha ta'lim takshilotlarida; maktabgacha ta'lim sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi nodavlat MTT, ta'lim va tarbiyaning muqobil shakllarida, "Mehribonlik" uylari maktabgacha ta'lim guruhlari, monitoring va uzluksizlikni ta'minlash maqsadida maktabgacha va boshlang'ich ta'limni nazorat qiluvchi boshqaruv organlarida. Davlat o'quv dasturi muqobil, parsial, moslashtirilgan o'quv dasturlarini yaratishda majburiy tayanch hujjat hisoblanadi.

3-bosqich. Shaxsiy qarashlariga misol, namuna va faktlar keltirish. Talabalar takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining maqsad va vazifalari ni bayon etadi. Bolaning shaxsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilagan davlat talablari asosida hamda MTT davlat o'quv dasturiga muvofiq uning har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish va amalga oshirishni ko'zda tutadi. Bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va mahalliy jamoatchilik o'rtasida o'zaro hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirishdan iborat.

4-bosqich. Umumlashtirish va xulosa chiqarish. Davlat o'quv dasturida bolaning o'yin o'ynash huquqi tan olinadi, o'yinning bola uchun ahamiyati, uning pedagogik imkoniyatlari ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etishda inobatga olinadi.

O'yin maktabgacha yoshda yetakchi faoliyatdir. O'yin orqali ta'lim olish bolalarni ta'lim olishi va rivojlanishining yondashuvlaridan biridir. Bolalar o'yinini tashkil etishda pedagogning o'rni quyidagilar o'yinlari uchun sharoit yaratish (vaqt, joy, resurslar), bolalar o'yinini rivojlantirish, o'zaro munosabatda bo'lishiga yordam berish, o'zlarini va qobiliyatlarini namoyish qilish imkoniyatini berish. Dars yakunida faol talabalar rag'batlantiriladi.

Uyga vazifa. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturini afzalligi va kamchiliklarini tahlil qilish.

"Raqamli savodxonlik" texnologiyasi "Kasbiy kompetensiya" mavzusida tatbiq etildi.

Maqsad. Talabalarda kasbiy kompetensiya haqidagi yangi ma'lumotlar berish, tarbiyachida didaktik kompetensiyani rivojlantirishning samarali yo'llarini o'rgatish.

Kerakli jihozlar: marker, qalam, oq qog'oz, skoch, proektor, kompyuter, metaplan xarita.

Talabalarga kasbiy kompetensiya haqidagi taqdimot havola etiladi.

Taqdimot mazmuni quyidagicha bo'ladi. Kompetensiya-sohaga doir bilim, ko'nikma, malaka, qarashlar yig'indisi, shaxsning qadriyati va shaxsiy sifatlari. «Kompetensiya» tushunchasini yuzaga kelish bosqichlari: 1-bosqich. (1960-1970 yillar) kompetensiya kategoriyasini ilmiy tasniflanishiga kirish, kompetensiya tushunchasining kelib chiqishi. 2-bosqich. (1970-1990 yillar.) O'qitish jarayonida kasbiy kompetensiyaning nazariy va amaliy tomondan qo'llanila boshlanishi. 3-bosqich. (1993-1996 yillar). Kasbiy kompetensiya ta'limga qaratilgan ilmiy kategoriya sifatida ko'plab olimlar tomonidan aniqlanib, maxsus fan sifatida qo'llanila boshladi. Kasbiy kompetensiya sirasiga quyidagilar kiradi: pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lish, o'z ustida ishlash, ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqa o'rnatish, bolalarda motivatsiyani shakllantirish, ta'lim muhitiga yangilik kiritish, maktabgacha ta'lim sohasini mukammal bilish, xorijiy tillardan birini bilish. Maxsus kompetensiya faniga doir maxsus metodlarni tanlay bilish, ta'limni tabaqalashtirish, individual yondashish, turli yosh xususiyatlarini bilish va bolalar ehtiyojini anglashdan iborat.

Talabalar taqdimotdan so'ng, metaplan xarita tarqatiladi va har bir blok bo'yicha nimalarni o'zlashtirishi lozimligini mustaqil ravishda to'ldiradi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-5847-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.-№6(766)-modda. –Toshkent, 2019 -yil 8-oktyabr.
2. Ушинский К.Д. Педагогическая антропология. В 2 томах. Учебник для вузов М.: 2024- 439 с.
3. Макаренко А.С. Педагогическая поэма. – М.: 2019-257 с
4. Ковалева Т.М Тьюторское сопровождение как ресурс развития процесса индивидуализации. М.:2009.7-15с. <https://elibrary.ru/item.asp?id=20888972>.; 45
5. Валлон А. От действия к мысли. Очерк сравнительной психологии. 1996. — 240 с.